ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

МУНДАРИЖА

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya 72

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida) 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий 80

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 85

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him 88

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 93

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 97

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 100

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang 103

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 106

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida) 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK TILIDA LEKSEMANING SEMANTIK TABIATI

O'razov Alisher Doniyorovich
Guliston davlat universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

Email: orazovalisher96@gmail.com

ORCID: 0009-0006-3924-4231

Ma'lumki, leksikologiya tilning lug'at tarkibini ikki tomonlama: 1) ichki va 2) tashqi tomondan tekshiradi. Tilning lug'at tarkibini ichki tomondan o'rganadigan sohasi semasiologiya deb yuritiladi. Unda so'z va iboralarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati o'rganiladi. Har qanday so'z tilda paydo bo'lishi bilan o'zining shakli va ma'nosiga ega bo'ladi, borliqdagi predmet, hodisa, belgi, harakatlarni ifodalaydi. So'zdagi ma'no turli ta'sir va talablar asosida taraqqiy etib boradi. Demak, lug'at tarkibini tashkil qiluvchi har qanday so'z ma'noga ega bo'ladi. Ana shu ma'nosi nuqtayi nazaridan so'zlar o'ziga xosliklarga ega. So'zning ma'nosi (semantikasi) va u bilan bog'liq masalalar leksikologiyadagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Leksikaga oid bu masala bilan leksikologiyaning semasiologiya bo'limi shug'ullanadi. Shuningdek, semasiologiya turg'un iboralarning ma'no xususiyatlarini ham tekshiradi.

Tilshunos olimlarning tadqiqotlarida leksemaning mazmun tomoni haqida quyidagicha ta'rifga duch kelamiz, ya'ni leksemaning mazmun jihati ikki hodisani (leksik ma'no va baho semalarini) o'z ichiga oladi. Leksik ma'no leksemaning voqelikka nisbatan belgilangan lug'aviy mazmunidir. U quyidagi uch hodisa orasidagi bog'lanishdan tarkib topadi: a) fonetik so'z (nomema); b) fonetik so'z tomonidan nomlangan voqelik (predmet, hodisa, tushuncha. Bular denotat, referent deb nomlanadi); d) fonetik so'z tomonidan ifodalangan ma'no (signifikat). U inson ongida denotat haqida shakllangan ma'nodir. Bu ma'no insonning til xotirasida saqlanadi. Demak, a) fonetik so'z (so'zning material qismi, nomemasi) predmetni, denotatni ataydi (denotativ ma'no), b) fonetik so'z inson ongidagi signifikatni anglatadi (signifikativ ma'no). Ana shu uch hodisa (fonetik so'z, denotativ ma'no va signifikativ ma'no) o'rtasidagi bog'lanishdan yuzaga kelgan semantik birlik leksik ma'no sanalar ekan.

Zamonaviy o'zbek tilishunosligiga oid adabiyotlar bilan tanishganimizda sistem leksikologiya haqida quyidagi ma'lumotlarga duch kelamiz. Sistem yondashuvda leksik sath birligi tilshunoslikda leksema atamasi bilan nomlanadi. Leksema lisoniy birlik bo'lsa, so'z uning nutqiy voqelanishi, ya'ni nutqiy birlik, shuning uchun leksema barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan tayyorlik, umumiylik, majburiylik kabi xossalarga, so'z esa nutqiy birliklarning tayyor emaslik, individuallik, ixtiyoriylik belgilariga ega. Masalan, o'zbek tilida so'zlashuvchilarning ongida, deylik [stol], [ona], [ruchka], [bormoq], [qizil], [o'n] leksemalari borliqdagi biror narsa, predmet, harakat, miqdor, belgi kabini ifodalovchi ongdagi tushunchaning inikosi sifatidagi ma'nolari bilan tayyor holda, so'zlovchining "buyrug'i"ni kutgan holda turadi[1]. Demak, leksema ongda cheksiz imkoniyat tarzda yashab, nutqda turli holatda reallashar ekan. O'zbek tilshunosligida leksemaning lisoniy tabiatiga ko'ra mazmun tomonida, ya'ni semama tarkibida quyidagi sema turlari mavjud ekan:

1) atash semasi (denotativ sema) leksemaning semema tarkibidagi nomlash, atash semalari;

2) ifoda semasi (konnotativ sema) leksemaning semema tarkibidagi uslubiy ma'no qirralari;

3) vazifa semasi (funksional sema) bu sema atash, ifodalash bilan birga leksemalarning nutqda o'zaro birika olishini (valentligini, distributsiyani), shu orqali gapda ma'lum vazifa bajarishini belgilaydi[2].

Leksemaning semantik mohiyati til birliklari orasida leksema alohida o'rin tutadi. Leksema – bu asosiy lug'aviy birlik bo'lib, u aniq bir ma'no tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Leksemaning semantik mohiyati quyidagi asosiy jihatlar bilan belgilanadi:

[1] Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. – B. 118.
[2] Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010. – B. 155.

Semantik jihatlar	Tavsifi
Denotativ ma'no	So'zning asosiy lug'aviy ma'nosi
Konnotativ ma'no	Ekspressiv yoki emotsional bo'yoq
Strukturaviy xususiyatlar	Paradigmatik va sintagmatik munosabatlar

Shuningdek, semalar darajasiga ko'ra birlashtiruvchi (integral) va farqlovchi (differentsial) semaga ajratiladi. Birlashtiruvchi sema birdan ortiq leksemadagi o'xshash, bir xil semadir. Farqlovchi sema esa o'xshash, ma'noviy yaqin leksemalardagi farqlanuvchi semalardir. Demak, ana shu birlashtiruvchi (integral) va farqlovchi (differentsial) semalar so'zlarni turkumlaydi ekan. Leksemani semaga ajratish tilshunoslikda komponent yoki uzvli tahlil yoxud semik tahlil deb yuritiladi. Ya'ni sememani semaga ajratish moddani atomga ajratishga, boshqacha aytganda esa, sema ximiyaviy elementga o'xshaydi. Borliqda ximiyaviy element turi sanoqli bo'lganligi va ularning har xil kombinatsiyasidan behad ko'p modda hosil qilinganligi kabi, cheklangan miqdordagi semaning turli xil kombinatsiyasidan ham ko'plab semema vujudga keladi deya tushuntiradilar tilshunoslar.

Tilshunoslikda so'zning borliqdagi biror harakat-holat, narsa-predmet, miqdor, belgi-xususiyatni atovchi, nomlovchi ma'nosi atash ma'nosi deyiladi. So'zning atash ma'nosiga qo'shimcha tarzda kishining his-tuyg'u, kayfiyati, turli munosabati va so'zning turli uslubda qo'llana olishini ifodalovchi ma'no so'zning qo'shimcha ma'nosi deyiladi. Bu esa lisonda baho semasi leksemaning mazmun jihatidagi ikkinchi hodisa bo'lib, u nomlanayotgan hodisaga munosabat bildiruvchi semantik komponent sanaladi. Masalan, *buyum* va *matoh* leksemalarining leksik ma'nolari bir xildir: ularning ikkalasi "tirikchilik-ro'zg'orda qo'llanadigan mol"ni anglatadi. Biroq *matoh* leksemasining mazmun jihatida bu leksik ma'no salbiy bo'yoq (baho semasi) bilan qoplanganligini anglash mumkin[1].

Tilshunos olim H.Jamolxonov leksemaning uzual va akkazional ma'nolari tahlil qilib, quyidagilarni yozadi. Uzual ma'no (lisoniy ma'no) – leksemaning mazmun mundarijasida bor bo'lgan leksik ma'no. U til egasi bo'lgan xalq tomonidan tan olingan, demak, ko'pchilikka tushunarli bo'lgan ma'nodir. Masalan, komputer leksemasining mazmun mundarijasida – hisoblarni bajarish, shu jumladan elektron shakldagi axborotni oldindan belgilangan algoritm bo'yicha qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va ishlov berish uchun mo'ljallangan mashina ma'nosi bor[2]. Okkazional ma'no (nutqiy ma'no) – leksemaning tildagi ma'nosiga (yoki ma'nolariga) xos bo'lmagan, ayrim shaxslarning (mualliflarning) nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, shu leksema mazmuniga yangicha – tus berish maqsadida yuzaga keltirgan sun'iy ma'nosidir. U individual xarakterda bo'ladi va faqat kontekstda (nutqda) anglashiladi. Komputer leksemasining quyidagi matnda anglatgan ma'nolari bunga yaqqol misol bo'ladi. Unda shunday deyilgan: *"Azlar emas, Ajdar bu, Ajdar! Yoshi qirqqa chiqib qilcha aqli kirmagan noinsof, umrimni* xazon *qildi!... Qizimizning bo'yi yetib qoldi, munday odamlarga o'*xshab *bisot-misot yig'ayapsanmi, deyish o'rniga* Xudo*ning bergan kuni bo'kib ichsa! Ichaverib, ichaverib, komputeri sinib qolgan buning!"*[3]. Olimning mulohazalarini tahlil qilib, uzual ma'no lisoniy, okkazional ma'no esa nutqiy hodisa ekanligini anglaymiz.

Leksema (so'z) o'z va ko'chma ma'noda qo'llanishi mumkin, ya'ni so'zning nutqdagi ma'nosi uning sememasiga mos kelsa, bu o'z ma'no deyiladi. Masalan, oltin so'zining sememasi "sariq rangli qimmatbaho metall". Oltin yoshlik birikmasida esa oltin so'zing atash semasi kuchsizlanib ifoda semasi kuchaygan va nutqda ma'no ko'chgan. Masalan, so'zning o'zi anglatgan tushunchadan boshqa tushunchani obrazli, ta'sirli tarzda ifodalashi so'zning ko'chma ma'nosi deyiladi. Demak, yuqoridagi brikmada oltin so'zi "inson umrining eng yaxshi payti, qimmatli davri" degan ma'noni obrazli, ta'sirchan ifodalagan. O'zbek tilshunosligiga oid adabiyotlarda o'zbek tilida ma'no ko'chishi quyidagicha bo'ladi, ya'ni:

1. Metafora. Bir predmetdagi tashqi belgining boshqa bir predmetdagi xuddi shunday belgiga o'xshashligiga ko'ra so'z ma'nosining ko'chirilishi. Masalan, o'z ma'no (*odamning ko'zi*)/ ko'chma ma'no (*buloqning ko'zi*);

2. Metonimiya. O'z ma'nolarining narsa va hodisalarning ichki va tashqi o'xshashlik belgilariga ko'ra emas, balki ularning o'rin va paytga, zamon va makonga munosabatiga ko'ra o'zgarishi. Masalan, Oybekni *o'qiyapman* (asari);

[1] Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Yalqin, 2005. – B. 148.
[2] Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – B. 258.
[3] Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – B. 258.

3. Sinekdoxa. butun o'rnida qism yoki qism o'rnida butun, jins tushuncha o'rnida tur tushuncha yoki tur tushuncha o'rnida jins tushuncha ifodalash vositasi sifatida so'z ma'nolarining o'zgarishi. Masalan, *besh qo'l barobar* emas (qo'l panja o'rnida);

4. Funksional (vazifaviy) ko'chish. Predmetlarning bajaradigan vazifasiga ko'ra so'z ma'nolarining o'zgarishiga ma'noning funksional yoki vazifadoshlik asosida ko'chishi. Masalan, *O'q – kamon o'qi* (miltiq o'qi);

5. Ma'noning kengayishi va torayishi. Til lug'at tarkibining o'zgarishi bilan bog'liq ravishda so'z ma'nolari ham o'zgara borishi. Masalan, ichkari so'zi ilgari binoning ichkarisini ham, xotin-qizlar huquqsizligini ham anglatgan bo'lsa, hozir bu so'z bir ma'noni - ma'lum bino yoki narsaning ichki qismini ifodalaydi[1].

Yana ma'noning zohiriy va botiniy-ramziy turi ham mavjud bo'lib, bu ko'proq badiiy adabiyotda qo'llaniladi. So'zning hamma uchun tushunarli, ko'zga ko'rinadigan, oddiy, sodda ma'nosi zohiriy ma'no deyiladi. Masalan, suv so'zining "tiniq, rangsiz ichiladigan suyqlik" ma'nosi zohiriy ma'no hisoblanadi. So'zning hamma uchun tushunarli bo'lmagan, maxsus ma'noda qo'llanishi botiniy-ramziy ma'no deyiladi. Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi o'zbek, Hofiz, Sa'diy, Jomiy, Umar Xayyom kabi fors-tojik mumtoz adabiyoti namoyondalari o'z g'azal va dostonlarida so'zning zohiriy ma'nolari bilan birga ramziy, ishorali ma'nolaridan ham foydalanganlar. Ularning asarlarida uchraydigan *yor, mahbuba, suyukli, oshiq, gul, bulbul, tikan, soqiy, rind, sharob, may, mayxona* kabi ko'pgina so'zlarda islom dini va falsafasi asosida boshqa xil – botiniy-ramziy, ishorali ma'nolar yashiringan. Demak, leksemaning ma'no tomoni badiiy adabiyotda zohiriy ma'no, ramziy, ishorali ma'nolarni ham ifodalar ekan.

Ma'lumki, mazmuniy maydonda so'zlar barcha ma'nolarining yig'indisi bilan bir butun sifatida ichki ma'no-munosabat va aloqalarga kirmay, balki alohida ma'nolari bilan munosabatga kirishadi. Ma'noga so'zlarning differentsial mazmuniy belgilari yoki tarkibiy qismlarining to'plami sifatida qarash mumkin. Leksemaning ma'noviy bog'lanishi bugungi kunda tilshunoslikda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ya'ni leksemada valentlik tushunchasi, umuman, leksemalarning o'zaro valentlik imkoniyatlari tomoni ham g'oyat murakkab bo'lgan tildagi hodisadir.

Hozirgi zamonaviy tilshunoslikka oid adabiyotlarda o'zbek tilida leksemalarning (so'zlarning) munosabatiga ko'ra semantik turlari quyidagilar hisoblanadi:

Semantik tur	Ta'rif	Misollar
Monosemantik	Gap ichida ham, gapdan tashqarida ham aynan bir ma'noni ifoda etuvchi so'zlar bir ma'noli so'zlar deyiladi	*Oy, quyosh kompas, marmar, morfologiya, taassurot, xulosa, gigiena, g'oya, mimika, qobiliyat, fonema*
Polisemantik	So'zlar ba'zan alohida holatda, nutqdan tashqarida bir xil ma'noni, gap tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'liq holda boshqa bir ma'no anglatishi mumkin. nutqdan tashqarida bir ma'no, nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'liq holda yana boshqa ma'no ifodalovchi so'zlar ko'p ma'noli so'zlar deyiladi.	*Yo'l – yo'nalish, hayot yo'li. Pasaymoq – yerga tomon yaqinlashmoq, bilimi pasaydi, ko'rish sezgisi pasaydi.*
Sinonimik	Sinonim leksema sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo'lib, ifoda semasi farqlanadi. Ma'nodoshlik qatoridagi leksemalarning barchasida atash semalari bir xil, ammo ifoda semalari har bir leksemada o'ziga xos.	*Go'zal, chiroyli, latofatli. Nutq irod etmoq, vaysamoq, gapirmoq, baqirmoq shivirlamoq, bo'kirmoq.*
Antonimik	Antonimiya leksemalar orasidagi ma'no zidligi munosabatidir. Antonim leksemalarning umumiy, birlashtiruvchi semasi bilan bir qatorda, qarama-qarshi semasi ham bo'lishi lozim	*Katta-kichik. Oq-Qora. Ulkan-Kichik.*
Omonim	Shakli (yozilishi va aytilishi) bir xil, ma'nosi har xil so'zlar omonimlar deyiladi.	*Tola (paxta) – Tola (xona turi), Qovoq - insonning tana a'zosi, Qovoq -poliz ekini.*
Giponimiya	Leksemalararo semantik munosabatning yana bir turi giponimiya (aniqrog'i, gipo-giperonimiya), ya'ni tur-jins munosabati. Giponimik munosabatda giperonim (jins) va giponim farqlanadi. Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini fodalovchi ko'pgina ma'noni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy leksemasi, dominantasi sifatida namoyon bo'luvchi lug'aviy birlik.	*Meva: olma-o'rik-shaftoli-behi. Daraxt: olma-o'rik-shaftoli-behi.*

[1] Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – B. 258.

Graduonimiya	Lug'aviy birliklar o'zaro ma'noviy munosabatiga ko'ra ma'lum bir darajalanish qatorini hosil etishi	*Gulobi-pushti-qizg'ish-qizil-olqirmizi.*
Partonimiya	Leksemalarning ma'no guruhlarida butun-bo'lak munosabatlarining ifodalanishi.	*Avtomobil (butun) – kuzov (bo'lak) – motor (bo'lak) – g'ildirak (bo'lak)*

Leksemaning semantik o'zgarish jarayoni leksemalar vaqt o'tishi bilan turli semantik o'zgarishlarga uchraydi. Asosiy semantik o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

Semantik o'zgarish	Misollar
Metaforik kengayish	*Qo'l – yordam*
Metonimik o'zgarish	*Osh – oshxona*
Ma'no torayishi	*Qalam – faqat grafitli qalam*

O'zbek tilidagi leksik-semantik munosabatlar o'zbek tilida leksemalar orasidagi semantik munosabatlar murakkab tizimni tashkil etadi. Asosiy munosabat turlari quyidagilardir:

Semantik munosabat	Misollar
Paradigmatik	*It, mushuk, bo'ri*
Sintigmatik	*Kuchli shamol esdi*
Leksik-semantik maydon	*Qizil, ko'k, yashil*

Shuningdek, leksema va kognitiv semantika kognitiv semantika lingvistik birliklarning inson ongidagi kontseptual tuzilmalari bilan bog'liqligini o'rganadi. Barcha tillar qatori o'zbek tilidagi leksemalar ham inson tafakkuri, madaniyati va dunyoqarashi bilan bevosita bog'liqdir.

Kognitiv tamoyillar	Tavsifi
Metaforik modellar	Inson tajribasiga asoslangan ma'no ko'chish jarayonlari
Frame nazariyasi	Ma'lum bir hodisa yoki konseptning ma'no doirasida idrok etilishi
Prototipik semantika	So'zning asosiy va ikkilamchi ma'nolari o'rtasidagi munosabat

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilida leksemaning semantik tabiati murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning tadqiq etilishi tilshunoslik uchun muhim ahamiyatga ega. Leksemalarning ma'no o'zgarishlari, turlari va o'zaro munosabatlari ularning til tizimidagi rolini belgilaydi. Leksemaning ma'no tomoni haqida gap ketar ekan, groudonomik, giponomik, portonomik kabi ma'no-munosabatga kirishishini ham sanab o'tish lozim, umuman olganda, leksemaning semantik tabiati birmuncha murakkab, qiyin ekanligi ma'lum bo'lib turibdi va bularning hammasi semasiologik tahlillar orqali oydinlashadi.

Rezyume: Ushbu maqolada o'zbek tilida yaratilgan leksik-semantik tadqiqotlar asosida leksemalarning semantik jihatlari, ularning tipologiyasi va ularning semantik tabiati haqida fikr yuritilgan. Ya'ni leksemaning ma'no tizimi, struktura, o'zgarish qonuniyatlariga munosabat bildirilgan va tahlilga tortilgan

Resume: This article discusses the semantic aspects of lexemes, their typology and their semantic nature on the basis of lexical-semantic studies created in the Uzbek language. That is, the meaning system, structure, and laws of change of the lexeme were analyzed

Резюме: В данной статье на основе лексико-семантических исследований, созданных в узбекском языке, рассматриваются семантические аспекты лексем, их типология и семантическая природа. То есть была проанализирована система значений, структура и законы изменения лексемы.